XALQ DEPUTATLARI ZOMIN TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 23-fevral VII-16-20-3-48-K/26 Zomin tumani

Zomin tumanidagi mavjud geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 23-dekabrdagi yig‘ilish bayoni va bayonnoma bilan tasdiqlangan ekspert xulosasini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi raisi o‘rinbosari X.Siddikovning taklifi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 23-dekabrdagi yig‘ilish bayoni va bayonnoma bilan tasdiqlangan ekspert xulosasiga asosan qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan tumandagi 19ta geografik obyekt nomlari ro‘yxati ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Zomin tumani Davlat soliq inspeksiyasi, tuman statistika bo‘limi, Davlat xizmatlari markazi, iqtisodiyot va moliya bo‘limi, tuman ichki ishlar bo‘limi, Davlat Kadastrlari palatasi tuman filiali va tegishli mutasaddi tashkilot rahbarlariga:

- ushbu qaror bilan nomlangan 19 tageografik obyektlar, xususan, ko‘cha, tor va berk ko‘chalar nomini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, ish yuritish hujjatlariga

o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda boshqa tegishli tadbirlarni mazkur qarorga muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshirsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (Z.Omonqulov, E.Maxmanazarov), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi (S.Parmanov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Yusupov)ga 1 oy muddatda ushbu qaror ilovasiga muvofiq tasdiqlangan ro‘yxat asosidagi ko‘chalarga ularning nomlari yozilgan metall ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni bosqichma bosqich o‘rnatish, almashtirish va olib borilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni belgilangan muddatda “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha tuman komissiyasi (X. Sidikov)ga taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (I.Nurmatov) fuqarolarning xorijga chiqish, kirish uchun hujjatlarini rasmiylashtirishda ko‘chalarning nomlari qayta nomlanganligiga alohida e’tibor qaratsin, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirishda geografik obyekt nomlarini to‘g‘ri yozilishini doimiy nazoratga olsin.

6. Mazkur qaror Zomin tumani hokimligi “Sharq tongi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi raisi o‘rinbosari X.Siddikov, geografik obyektlarga nom berilganligi to‘g‘risidagi tegishli hujjatlarni Geografik obyektlar nomlarini davlat reestriga kiritish uchun o‘n kunlik muddatda Kadastr agentligiga taqdim etsin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Omonqulovlar zimmasiga yuklatilsin.

9. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **BEGMATOVA DILAFRO‘Z ALIJONOVNA**

Xalq deputatlari Zomin tumani
Kengashining
2026-yil 23-fevraldagi
VII-16-20-3-48-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Tumanda o‘tkazilgan xatlov natijasida aniqlangan nomlanayotgan va qayta nomlanayotgan ko‘chalar ro‘yxati

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izoh
1	2	3	4		5
1.	Koʻcha	Peshogʻor, Qoʻshtol mahallalari	Nomsiz	Namuna	Tasdiqlash qarori mavjud emas
2.	Koʻcha	Yoshlik mahallasi	Nomsiz	Ixlos	Tasdiqlash qarori mavjud emas
3.	Koʻcha	Mustaqillik mahallasi	Nomsiz	Orzu	Tasdiqlash qarori mavjud emas
4.	Koʻcha	Gʻallakor mahallasi	Nomsiz	Registon	Tasdiqlash qarori mavjud emas
5.	Berk koʻcha	Gʻallakor mahallasi	Nomsiz	Registon	Tasdiqlash qarori mavjud emas
6.	Koʻcha	Qoʻrgʻon, Farovon mahallalari	Nomsiz	Samo	Tasdiqlash qarori mavjud emas
7.	Tor koʻcha	Qoʻrgʻon mahalllasi	Nomsiz	Samo	Tasdiqlash qarori mavjud emas
8.	Koʻcha	Turkman mahallasi	Nomsiz	Nurjahon	Tasdiqlash qarori mavjud emas
9.	Berk koʻcha	Turkman mahallasi	Nomsiz	Nurjahon	Tasdiqlash qarori mavjud emas
10.	Koʻcha	Nurlikent mahallasi	Nomsiz	Moziy	Tasdiqlash qarori mavjud emas
11.	Koʻcha	Oʻzbekiston, Nurafshon	Nomsiz	Iqtisodchi	Tasdiqlash qarori mavjud emas

		mahallalari			
12.	Koʻcha	Oʻzbekiston, Nurafshon mahallalari	Nomsiz	Koʻzmunchoq	Tasdiqlash qarori mavjud emas
13.	Berk koʻcha	Nurafshon mahallasi	Nomsiz	Koʻzmunchoq	Tasdiqlash qarori mavjud emas
14.	Koʻcha	Xalqobod mahallasi	Nomsiz	Iltifot	Tasdiqlash qarori mavjud emas
15.	Koʻcha	Gulshan mahallasi	Nomsiz	Tarona	Tasdiqlash qarori mavjud emas
16.	Berk koʻcha	Gulshan mahallasi	Nomsiz	Tarona	Tasdiqlash qarori mavjud emas
17.	Koʻcha	Beshkubi mahallasi	Nomsiz	Sarhad	Tasdiqlash qarori mavjud emas
18.	Berk koʻcha	Beshkubi mahallasi	Nomsiz	Sarhad	Tasdiqlash qarori mavjud emas
19.	Koʻcha	Chorvador mahallasi	Nomsiz	Mehrigiyo	Tasdiqlash qarori mavjud emas